

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TA'LIMDA TUTGAN O'RNI

Rustamova Adash Eshankulovna

PhD, dotsent, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi asosiy vazifalardan bo'lgan ta'limi rivojlantirish va Respublikamizni aynan shu sohada xalqaro darajada tan olinishi uchun ko'plab sa'y harakatlar olib borilishiga o'z hissasini qo'shayotgan faoliyatlardan biri pedagogik diagnostika xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, korreksiyalash, ta'lim sifati

Роль педагогической диагностики в образовании

Рустамова Адаш Эшанкуловна, PhD, доцент, Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация: В данной статье одним из мероприятий, способствующих развитию образования, что является одной из главных задач сегодня, и международному признанию нашей Республики в этой области, является одно из мероприятий, способствующих реализации педагогических диагностика.

Ключевые слова: педагогический диагноз, коррекция, качество образования.

The role of pedagogical diagnostics in education

Rustamova Adash Eshankulovna, PhD, associate professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation: In this article, one of the activities that contributes to the development of education, which is one of the main tasks today, and the international recognition of our Republic in this field, is one of the activities that contribute to the implementation of pedagogical diagnostics.

Key words: pedagogical diagnosis, correction, quality of education


O'zbekistonda pedagogik diagnostika o'zining tarixiga ega bo'lgan yangi fan sohasidan biridir. 1991 yilda mamlakatimiz mustaqqillikni qo'lga kiritgandan so'ng pedagogik diagnostikaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Jamiyatimizda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda yoshlarning aqliy rivojlanishlan, intellektual salohiyatini oshirish, ularda Vatanga muhabbat, milliy gurumi qaror toptirish, muloqot odobi, o'zbek va jahon madaniyati, san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi¹. Ayniqsa, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilinganidan so'ng pedagogik diagnostika ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, ta'lim sifatini baholashda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Respublikamiz olimlari: G.Bakiyeva, I.Tuxtasinov, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, M.Quronov, O.To'rayeva, R.Mavlonova, O.Musurmonovalar yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, rivojlanirish hamda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol goyalarini singdirish, mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalarini tadqiq qilishgan va bu muammolar yechimini topish uchun o'z ilmiy-amaliy ta'lim maskanilarini yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Bugungi kunda professor E. G'oziyevning "Oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarning aqliy qobiliyatlarini tashxislash", M. Quronovning "Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish va mafkuraviy immunitetni hosil qilish" kabi tadqiqot ishlaridan jamiyatimiz pedagogiari unumli foydalanishmoqda. O'zbek olimlari - B. Qodirov, O. Hasanboyeva, Sh. A. Abdullayeva, K. Zaripov, Qurbaniyozovalar o'qituvchilarning kasbiy layoqatini aniqlash, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash, xulqdagi nuqsonlarni korreksiyalash, o'smir va o'spirin yoshidagi talabalarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish masalalari ustida ilmiy izlanish olib bordilar va maxsus metodikalar yaratishga muyassar bo'ldilar hamda O'zbekistonda pedagogik diagnostikaning fan sifatida shakllanishiga O'z ulushlarini

¹ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2017.104 bet.

qO'shdilar². Bugungi kunda B. Qodirovning «O'quvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini diagnostika qilish», O. Hasanboyevaning «Kichik ta'lim maskani yoshidagi o quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash», K. Zaripovning “O'qituvchilarning kasbiy tayyorligini tashxislash”, SH.A. Abdullayevaning “O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash” nomli metodikalari uzlusiz ta'lim tizimiga tatbiq qilinib, samarali natijalar bermoqda. O'zbek olimlari - R.H. Djurayev, J.G'.YO'ldoshev, B.Xodjayev, D.RO'ziyevalar ta'lim muassasalarini rahbarlarining kasbiy faoliyatini tashxislash, ta'lim sifatini oshirish monitoringini O'rganish masalalari ustida ilmiy izlanish olib bordilar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy O'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yO'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bO'lgan sifatli ta'limni amalga oshirishni va sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qO'yadi. 2017 yil 15 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yO'nalishi bO'yicha Harakatlar strategiyasi”da ham mamlakatda yangi mazmundagi uzlusiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qO'yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion ta'lim tizimini shakllantirish bosh yO'nalish sifatida belgilab olindi. Bu nafaqat boshqaruva muammolari, baiki ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish, ularni tashxis qilish va O'rganish vazifalarini belgilaydi. Demak, ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu - O'qituvchilarni innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qO'yish, rejalashtirish va bashorat qilish jarayonlarini O'rganishni ta'minlashdir. Bu holat pedagog diagnostikasi (O'z-O'zini tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan Talabalar jamoasini tashxislash; ma'muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta'lim bo'limlari uslubiyotchilari tomonidan olib borilayotgan

² Abdullayeva Sh. A., Ro'ziyeva. D.I. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA.2018, 265 b.

tashxislash yo'nalishlarini xam qamrab oladi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyaning yaxlit nazariyasi va amaliyoti alohida o'r ganilishi lozim bo'lган va O'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi³. O'zining maqsadi, vazifalari, tadbiqu qilish sohasi bo'yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil bo'lган. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi yO'nalish, uni «dastur sifatidagina qabul qilish mumkin», - deb hisoblaydigan olimlar ham yO'q emas. Shu sababli bugungi kunda «pedagogik diagnostika» atamasining bir necha talqinlari mavjud bo'lib, ular mazmun-mohiyatiga ko'ra xilma-xildir. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatida ham shaxs shakllanishida muhitning O'rni muhimligi ko'rsatiladi. Buyuk insonlar O'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson O'z intilishi va faolligi bilan yuksak natijalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni rO'yobga chiqarish uchun ham O'z ustida ishlanishi zarurdir. Shunday qilib, ta'limgarbiya jarayonini oqilona tashkil etishda pedagogik diagnostika⁴:




1.2-rasm. Pedagogik diagnostikaning ahamiyati

Mahoratining asosiy komponentlaridan biri O'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishdir. Buning uchun pedagogning texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallagani yetarli emas. Pedagog O'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, Talaba-talabalarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni O'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni Talaba-talabaga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi

³ Abdullayeva Sh. A., Ro'ziyeva. D.I. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA. 2018, 265 b.

⁴ Abdullayeva Sh. A., Ro'ziyeva. D.I. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA. 2018, 265 b.

lozim. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning bunday tarzda takomillashtinsh vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir⁵:




1.3-rasm. Pedagogik diagnostikaning vazifalari

Diagnostika natijalari va ta'lim-tarbiya jarayonini tO'g'ri rejalashtirish Diagnostika fanining asosiy maqsadi Talaba-talabalar psixologiyasining turli sohalaridan psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish, ayniqsa, shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga O'rgatishdir⁶. Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning O'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi Individual yondoshish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini O'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlanda ham aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oraliq'idagi soha bO'lib, Talaba-talaba shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni O'rganadi.

⁵ Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik. Berlin, 1991, 240 p.

⁶ Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.




1.4-rasm. Pedagogik diagnostikasiz ta'lim natijalari

Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubiy muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu asosda yutuqlar mustahkamlanib, yO'l qO'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yO'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qoiga kiritilmoqda. Shu borada savol tug'iladi:


- talabalar qobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan kO'nikmalarining O'lchovi bormi?
- talabaning bilimi va kO'mkmalarini belgilashga O'qituvchi aralashgani ma'qulmi yoki O'ziga O'zi baho bergani afzalroqmi?

Ana shunday savollarga eng maqbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Ushbu maqsadni rO'yobga chiqarish yO'l-yO'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir:



1.5-rasm. Pedagogik diagnostikaning predmeti


Keyingi yillarda pedagogik diagnostika quyidagi funksiyalarni O'z ichiga olmoqda:



1.6-rasm. Zamonaviy pedagogik diagnostikaning vazifalari

Pedagogik diagnostika ta'limni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. U O'quvtarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tahlil etadi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab

beradi, yO'l qO'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga y o i ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir kO'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada O'zlashtirilganligi tahlil etiladi, O'quv kursi va O'quv dasturlarining O'zlashtirish darajasi baholanadi. Egallangan malakani aniqlashga qaratilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatning ayrim jihatlari quyidagilar⁷:




1.7-rasm. Pedagogik diagnostik faoliyat



1.8-rasm. Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriyalari

Diagnostik tahlillar quyidagi holatlarda ob'ektiv bo'ladi:

⁷ Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik. Berlin, 1991, 240 p.



1.9-rasm. Pedagogik diagnostik tahlillarning obyekтивлilik tamoyillari


Pedagogik diagnostika natijalari qachon uzil-kesil tasdiqlanadi? Tajribalar tahlillan shuni kO'rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bojadi,, chunki bunda tO'rt xil xulosa bir xil natija bilan baholanadi⁸. Bular,

- mazmunning tasdig'i;
- har xil usul bilan olingan natjalarning bir xilligi;
- natijalarga kO'ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;
- loyihalashning tasdiqlanishi, ya'ni loyihalashtirishdagi natjalarning olingan xulosalarga uyg'unligi.

Istalgan kasbiy faoliyat sohasida diagnostika uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifatim belgilab beradi. Bu holatdan O'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati, umumiy O'rta talimning pedagogik faoliyati ham istisno emas. Har bir O'qituvchi O'zinimg O'qitish va tarbiyalash jarayonining natijalarini O'rganib, tekshirib boradi, ularning bO'sh O'zlashtirish sabablarini tahlil etib boradi. Ammo bu hali diagnostika bilan bog'langani yO'q.

⁸ Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. -Moskva:Logos, 2002.284 b.

“Pedagogik diagnostika” - bu kengroq tushuncha bO’lib, uning o’ziga xosligi quyidagi holatlarda namoyon bO’ladi⁹:




1.10-rasm. Pedagogik diagnostikaning O’ziga xosligi

Ta’limda pedagogik diagnostika - ta’lim-tarbiya faoliyatida uning sifat va samaradorligini aniqlab beruvchi amaliyot bO’lib, unda erishilgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni kO’rsatib beradi va uning takomillashtirish imkoniyatini ochib beradi. U dars jarayonida, ta’lim sub’ektlari faoliyatida, pedagogik texnologiyalarni qO’llash jarayonida ham muhim ahamiyaitga ega. Bunda diagnostika ta’lim maqsadi va mazmuni, metod va vositalar, motivlar va qobiliyatlar asosida natijani rO’yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiyani demokratizatsiya va modernizatsiya qilishda, ta’limni differensiyalashda aniq tahliliy axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi. Oliy ta’limdagi kamchilik, bO’sh tomonlar va kuchli tomonlarni aniqlash asosida uni takomillashtinb borish imkonini beradi. Talim muassasasi uchun qayta aloqani yO’lga qO’yish, ahvolga amq baho berish va boshqaruv jarayonini tO’g’n tashkil etish funksiyalari diagnostikaning asosi hisoblanadi. Pedagogik diagnostikaning bosh funksiyasi ta’lim-tarbiya jarayonida qayta aloqa funksiyasidir. Ta’lim-tarbiyaning

⁹ Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskem kollektive- M.r //Pedagogika, 2016 №4, S.- 40-50.

ma'lum etaplarida tarbiyalanganlik va bilimdonlik haqida olingan axborotlarni tahlil etish, kelgusida ta'lim-tarbiya jarayonini konstruksiyalashga, awalgiga nisbatan O'zgarishlarni solishtirsh imkonini beradi. Olingan axborotlarning tO'liqligi va ob'ektivligi diagnostikaning boshlang'ich etapida ta'lim-tarbiya ishlarim rejlashtirishda maksimal darajada real talablarga yaqinlashtiradi, uni optimal rivojlantirishga olib keladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda real olingan axborot Talaba-talabalarda ularning tO'liq ichki imkoniyatlarini ishgasolish orqali DTS talablarini tO'la O'zlashtirishga olib keladi. Agar ta'lim-tarbiya natijasi bO'yicha zaruny informatsiyalardan O'z vaqtida aniq va tO'la holda har bir Talaba-talaba, O'qituvchi xabardor etib borilsa, O'z vaqtida korrektirovkalar kiritib borilsagina, kutilgan pedagogik maqsadlarga erishishimiz mumkin. Baholash funksiyasi ham pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalaridandir. Har tomonlama va kompleks asosda baholash O'zining bir qancha aspektlariga ega:



1.12-rasm. Pedagogik diagnostikaning baholash aspektlari

XULOSA

Pedagogik diagnostikada baholash funksiyalari juda muhimdir. Har tomonlama keng qamrovli va obyektiv baholash O'quv jarayoni haqidagi tushunchani boyitadi va uni takomillashtirishga hissa qO'shadi. Pedagogik diagnostikada eng muhim funksiya - bu shahsiy talabaning rivojlanishining ma'lum bir bosqichida uning sotsializatsiyasi

muvaffaqiyat darajalari tO'g'risidagi diagnostika ma'lumotlari O'tgan ijtimoiy pedagogik tajribani tahlil qilish va keyingi O'quv jarayonini loyihalashda asosiy ma'lumot bO'lib xizmat qiladi. Har bir talaba va ijtimoiy tarbiyachiga O'quv jarayonining rivojlanishi va natijalari tO'g'risida ma'lumotni O'z vaqtida tuzatish uchun ma'lumot olish imkoniyatini yaratish pedagogik diagnostikaning eng muhim vazifasidir. Pedagogik diagnostikaning O'ziga xos xususiyati shundaki, zamonaviy sotsializatsiya sharoitida shaxs nafaqat ijtimoiy - pedagogik, balki umumiyligida pedagogik muammodir. Pedagogik diagnostika - bu ijtimoiy muhitni, shakllanish, shaxs rivojlanishining ijtimoiy omillarini O'rganish va tahlil qilishga yordam berishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan jarayon bO'lib, talabaning ahvolini, oiladagi, ta'lim maskanidagi, tengdoshlar bilan munosabatlardagi ahvolini O'rganish; mavjud vaziyatni tahlil qilish asosida talabalarga yordam berish; talabaning atrofidagi va unga ta'sir kO'rsatadigan turli ijtimoiy sohalarda ijtimoiy ta'limning holati tahlili; ijtimoiy faoliyatning ijobiy tajribasini tahlil qilish, sintez qilish, tarqatish va ommalashtirishdir. Pedagogik diagnostika natijalari O'z - O'zini tarbiyalash, O'z - O'zini O'qitish, hayotingizni va harakatlaringizni mustaqil ravishda tashkil qilish kO'nikmalarini rivojlantirish bO'yicha talaba bilan ishslash tizimini loyihalash uchun asos bO'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2003, 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. -Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -Toshkent, 1997
4. “2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”. -Toshkent, 7 yanvar

2017 yil.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak- Toshkent: O'zbekiston, 20017.- 104 bet.

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -ToshkentiO'zbekiston, 2017.-488 bet.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash -yurt taraqqiyoiti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.
9. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-ToshkentiO'zbekiston, 2017.
10. Abdullayeva Sh. A., Ro'ziyeva. D.I. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA.2018, 265 b.
- 11.Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik.-Berlin, 1991- 240 p.
- 12.Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskem kollektive- M.r //Pedagogika, 2016 №4,S.- 40-50.
- 13.Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. -Moskva:Logos, 2G02.284 b.